



MASOFAVIY TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Turayev A.M.

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: masofaviy ta'lim, boshlang'ich sinf, kasbiy kompetentlik, shart-sharoit, didaktika, imkoniyat.

Ключевые слова: дистанционное образование, начальная школа, профессиональная компетентность, условия, дидактика, возможности.

Key words: distance education, elementary school, professional competence, conditions, didactics, opportunity.

Kirish. Dunyoda ta'lim sivilizatsiyasi va insoniyatning yaxlit barqaror taraqqiyoti negizida bilim olishdan faoliyatli-kompetentli ta'lim paradigmasiga o'tish, jamiyat rivojlanishining zamonaviy tendensiyalariga mos, raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan talabning tobora oshib borishiga olib keldi. Globallashuv kontekstida oliy ta'lim sifati mamlakatning barqaror raqobatbardoshligini ta'minlab beradi va "boshlang'ich ta'lim jarayonini baholash va integrasion-innovation vositalarini takomillashtirish, yuksak natijalarga erishish imkonini beruvchi ta'lim mazmunini amaliyotga joriy etish", bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish maqsadida "boshlang'ich ta'lim yo'nalishlarida samarali o'quv jarayonini tashkil etish" muammosi alohida dolzarblik kasb etdi.

Jahonda oliy ta'limni masofaviy talablar asosida tashkil etish va mazmunan yangilash, fan hamda ishlab chiqarish bilan integrasiyalashuvini ta'minlash, bo'lajak o'qituvchilarning masofaviy ta'lim bo'yicha bilim olishiga doir tayyorgarlikning metodik, elektron ta'lim muhitida tahsil olishning axborot-kommunikasion ta'minotini, masofaviy ta'lim imkoniyatlarini orttirish sohasida keng qamrovli ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Ayni vaqtda zamonaviy ta'lim tendensiyalariga muvofiq kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining jahon standartlari darajasida o'z mutaxassisligi bo'yicha ishlashga qodir, ijtimoiy va kasbiy mobil, mehnat bozorida raqobatbardosh



kadr sifatida kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi [1].

Masofaviy ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar doimiy o'zgarib borayotgan bir paytda ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, masofaviy ta'lim sharoitida o'qitishning didaktik asoslarini ishlab chiqish, pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, foliyatning mazmuni va tuzilmasi, mezonlari va shakllanganlik darajalari, metod, vositalari, modeli, o'qitish sifatini oshirish, shuningdek, pedagogika oliy ta'lim muassasasida masofaviy ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirishning nazariy hamda amaliy acoclarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Buning uchun esa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining mustaqil olgan bilimlarini kundalik hayotda amaliy, integratsion qo'llash imkoniyatini yaratish, ko'nikma va malakalarni takomillashtirish usullarini ishlab chiqish kerak bo'ladi [2].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, xalq ta'limi tizimida bo'layotgan o'zgarishlar va qabul qilinayotgann me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ko'rsatib o'tilgandek har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi oldiga ta'limda yangicha yondashuvni olib kirish, metodik, ilmiy, innovatsion va zamonaviy talablarga javob berish kabi muhim vazifa qo'yilmoqda. Bu maqsadlar raqamli va masofaviy o'qitishga bevosita bog'liq bo'lib, boshlang'ich ta'lim uchun xos bo'g'inlarni ajratish imkonini beradiki, bu bo'g'inlar xilma-xil o'quv fanlari dasturlarida, o'quv rejalarida, darsliklarda ta'limning joriy etilishi hamda metodik tizimida biror tarmoqni hosil qilishi mumkin. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15-iyundagi PF-279-sonli "Davlat Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida"gi farmonga asosan, Oliy ta'limda 2022-2023-o'quv yilida 3610 ta masofaviy ta'lim shaklida o'qish uchun kvota ajratilishi ham qator vazifalar ijrosini ta'minlashga xizmat qiladi [3].

Respublika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni uzluksizligini ta'minlash hamda talabalarning bilim olish faoliyatini masofadan turib metodik qo'llab-quvvatlash maqsadida 2020-yil 1-apreldan boshlab, masofaviy ta'lim platformalari ishga tushirilgan. Bunday platformalar, avvalambor, talabalarga mutlaqo yangi formatdagi, ya'ni virtual muhitda o'quv jarayonini tashkil etish imkoniyatini berdi.

Buning uchun birinchi navbatda, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari o'quv rejaları asosida joriy semestrda fanlarning dasturlari bo'yicha o'quv resurslarini yaratishga e'tibor qaratildi [3].

Bugungi kunga kelib, oliy ta'limda o'qitilayotgan 6102 tadan ortiq fandan zamonaviy masofaviy ta'lim resurslari yaratilgan va har bir oliy ta'lim



muassasasining masofaviy o'qitish platformalariga joylashtirilgan. Masofaviy ta'lim platformasidagi quyidagi tizimli kontentlar kiritiladi.

Masofadan o'qitish sharoitida zamonaviy metodlarni qo'llash natijasida ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, zaruriy xulosalar chiqarish, o'z fikrini erkin bayon qilish, uni asoslab himoya qila bilish, faol muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari rivojlanib boradi. Bu metodlar masofaviy o'qitishda tyutorlar va ta'lim oluvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga hamda interfaol metodlarni qo'llash orqali mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Masofaviy ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish deganda biz ilmiy dunyoqarash asosida boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish metodikasi bo'yicha umumiy psixologik-pedagogik va innovation tayyorgarlik bilan uzviy bog'lab tayyorlashni tushunamiz.

Metodik tayyorgarlik boshlang'ich sinf o'qituvchisini tayyorlashning tarkibiy qismi bo'lib, uni ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatdan ajratib qarash mumkin emas.

Tahlil va natijalar. Masofaviy ta'limdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini turli fan metodikalari bilan qurollantirishda foydalanish mumkin. Bular:

- matematika o'qitish metodikasi;
- ona tili va o'qish savodxonligi;
- texnologiya o'qitish metodikasi;
- tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi [4].

Yuqoridagi masofaviy ta'lim sharoiti yutuqlari, boshlang'ich sinf fanlarini o'qitish metodikalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy ta'limi qoidalaridan biri kompetentlik nuqtai nazaridan zamonaviy yondashuvni tashkil eta olish sanaladi. Uni amalda joriy etish esa ta'lim mazmuni, metod va texnologiyasiga nisbatan yangicha yondashuvni olib kirish sanaladi. Aynan ta'limning va ta'limga tegishli mazmunini yangilanishini asosiy birliklari kompetentlik mazmuni va unga aloqador tushunchalarni kirib kelishi hisoblanadi. Masofaviy ta'lim sharoitida kasbiy kompetentlikni takomillashtirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining shaxsiy sifatleri uning mavjud bilimi, egallagan ko'nikmalari, sinab ko'rgan amaliy tajribasi, o'zidagi bor qobiliyatlari, milliyligimizga mos shaxsiy sifat va integrativ yo'nalishlarini ifoda etadi. Masofaviy ta'lim sharoitida ekanlangan kompetentlik bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi shaxsining kasbiy faoliyatga tayyorgarligini to'liq ta'minlashga xizmat qiladi va metodik tayyorgarlikka nisbatan zamonaviy shart-sharoitlar: tashkiliy, metodik-texnik, pedagogik-psixologik omillarni hisobga olishni kuchaytiradi.[6]

Masofaviy ta'lim sharoitida metodik tayyorgarlikni takomillashtirish, zamonaviy shart-sharoitlarini yaratish tizimi kasbiy va metodik ahamiyatga



molik xususiyatlar, shuningdek, umummadaniy (estetik, falsafiy, didaktik, tarbiyaviy), ilm-fanga oid (amaliy, nazariy, metodik), psixologik-pedagogik va kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan milliy dastur talablari asosida innovasion pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini amaliyotda foydalana olish metodikalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni o'z ichiga oluvchi murakkab dinamik tizimdir.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'zini anglashining asosiy sharti sifatida o'z-o'zini rivojlantirish istagi va qobiliyati ta'kidlangan. Zamonaviy ta'lim sharoitida o'qituvchining kasbiy faoliyatida alohida rol o'ynashga harakat qiladigan ta'lim saytlari internet makonining tarkibiy qismlari sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchining kasbiy o'zini anglash vositasi sifatida masofaviy ta'lim saytlaridan foydalanish mumkin bo'lgan zamonaviy ta'lim veb-resurslarining imkoniyatlari kengligini alohida ta'kidlash mumkin.

Bizningcha sayt yoki veb-sayt inglizcha tarmoqning bir qismi degan ma'nolarni anglatadi.

Sayt bitta domen nomidan foydalanadigan, bir-biriga bog'langan web-sahifalar to'plami. Veb-saytlar shaxs, guruh, korxonalar yoki tashkilot tomonidan turli maqsadda yaratilishi mumkin. Barcha ommaviy veb-saytlar butun dunyodagi internet to'rini tashkil qiladi.[1]

Oddiy qilib aytganda, sayt internetda joylashgan, ba'zi ma'lumotlarni (matn, video, fotosuratlar, hujjatlar, musiqa) o'z ichiga olgan manzil. Internet esa ushbu manzillar to'plamidir.

Bugungi kunda internet har qanday yoshdagi va har qanday kasbdagi odamlarning yangi bilimlarga bo'lgan ehtiyojini qondira oladi. Ilgari biron-bir mavzu bo'yicha tushuncha hosil qilish yoki kerakli ma'lumotlarni topish uchun ko'plab manbalarga (kitoblar, darsliklar, ensiklopediyalar, jurnallar, gazetalar, radio va televidenie) murojaat qilish kerak bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda bitta manba - Internetdan foydalanish kifoya.

Umuman olganda, internetda turli axborot resurslari, axborot tizimlaridagi (kutubxonalar, arxivlar, fondlar, ma'lumotlar bazalari, boshqa turdagi axborot tizimlari) hujjatlar mavjud. Internetda orqali mavjud bo'lgan elektron shakldagi axborot resurslari internet resurslari deb ataladi.[2]

Ayniqsa bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi ham masofaiy ta'lim vositasida metodik tayyorgarligini takomillashtirish jarayonida turli ta'lim saytlariga bevosita murojaat qiladi va ijodiy-integrativ faoliyatda bo'ladi.

Ta'lim sayti uchun mavzu tanlashda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining qiziqishi va bilimlari, shuningdek, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining saytni to'ldirmoqchi bo'lgan ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojini hisobga olishi kerak.



Yaratiladigan saytlar mazmun jihatdan maqsadli auditoriyalarga ajratiladi:
kichik maktabgacha yoshdagi bolalar;
maktab yoshidagi bolalar;
oʻrta maktab yoshidagi bolalar (10 yoshdan 15 yoshgacha);
oʻsmirlar (15 yoshdan 17 yoshgacha);
talabalar;
kattalar.[3]

Mavzu va maqsadli auditoriyaga qarab, boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchisi foydalanadigan taʼlim saytlarining oldida turgan quyidagi maqsadlarni ajratib koʻrsatdik:

mavzu boʻyicha bilimlarni ommalashtirish;
mavzu bilan yuzaki tanishish;
mavzuni chuqur oʻrganish;
qoʻshimcha ixtiyoriy maʼlumotlarni taqdim etish;
qoʻshimcha maʼlumotni taqdim etish;
bilimlarni nazorat qilish;
usuliy materiallar taqdimoti.

Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchisi foydalanadigan zamonaviy taʼlim veb-saytlarini quyidagi guruhlariga ajratib tahlil qildik:

1. Taʼlim muassasalarining veb-saytlari.
2. Oʻquv jarayonini masofadan turib amalga oshirish imkonini beruvchi veb-loyihalar.
3. Taʼlim maʼlumotlarini tarqatuvchi veb-saytlar.
4. Tadqiqot veb-saytlari.
5. Maʼlumot veb-saytlari.
6. Raqobatbardosh internet-loyihalar veb-saytlari.
7. Oʻquv-usuliy birlashmalarning veb-saytlari.
8. Ijtimoiy tarmoqlardagi taʼlim jamoalari; taʼlim veb-xizmatlari.[4]

Masofaviy taʼlim sharoitida boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchisining veb-saytlardan mustaqil foydalana olish koʻnikmasi kasbiy oʻzini-oʻzi anglash faoliyatiga asos boʻlib xizmat qiladi. Bugungi kun talabasining kasbiy oʻzini-oʻzi anglashi fanlararo muammolardan biridir .

Tadqiqotchilarning veb-saytlardan foydalanish jarayonida “kasbiy oʻzini oʻzi anglash” atamasini aniqlashga boʻlgan yondashuvlarini tahlil qilar ekanmiz, ularning tadqiqotlarida oʻqituvchi kasbiy faoliyatini oʻz imkoniyatlari va moyilliklarini rivojlantirish va amalga oshirish jarayoni sifatida izohlanadi, degan xulosaga kelishimizga imkon beradi .

A.V.Batarshevning fikricha, pedagogik sohaga nisbatan “kasbiy oʻzini oʻzi anglash” tushunchasi “mahsuldor” sifati bilan toʻldirilishi kerak .



Shunday qilib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'zini-o'zi anglashi uning o'z-o'zini rivojlantirish istagi va zamon bilan hamqadam bo'lishi xohishsiz amalga oshmaydi. Bularni rivojlantirish uchun bugungi kun boshlang'ich sinf o'qituvchisi ham maqsad, ham kasbiy o'zin- o'zi boshqarish tizimini chuqur anglashi va amalga oshira olish yo'lini bilishi lozim.

Tadqiqotchi O.M.Korchajkinning fikricha, o'qituvchi o'quv jarayonini shunday tashkil qilishi kerakki, an'anaviy ta'lim muhitini axborot jamiyati talablariga javob beradigan yuqori texnologiyali, zamonaviy muhitga aylantirsin.

Bugungi kunga kelib, internetning rivojlanishi jahon ta'lim tizimini o'zgartirdi: ta'lim muassasalarining texnik jihozlari o'zgardi, jahon axborot resurslariga kirish kengaydi, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning faol kognitiv faoliyatiga yo'naltirilgan ta'limning yangi turi, usuli va shakllari paydo bo'ldi.

Hozirgi kunda internet resurslaridan maktab o'qituvchilari, oliy ta'lim o'qituvchilari, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari, boshlang'ich sinf o'quvchilari faol foydalanmoqda.

Ta'lim veb-sayti deganda biz kompyuter tarmog'ida umumiy manzil ostida joylashtirilgan, maqsadli o'quv jarayonini amalga oshirish imkonini beradigan elektron hujjatlar tizimini tushunamiz .

Tadqiqotchi S.V.Panyukova ta'lim veb-saytlari deganda tarqatilgan va tarqatiladigan hamda bir vaqtning o'zida ko'plab foydalanuvchilar tomonidan foydalanilishi mumkin bo'lgan resurslarni nazarda tutadi.[5]

Hozirda ta'lim veb-saytlari soni doimiy ravishda o'sib bormoqda, bu holat ularni yanada batafsilroq tipologiya qilishga ehtiyoj tug'diradi, bu esa o'qituvchilarga internet resurslarini qidirish va ulardan foydalanishga yanada samarali yondashish imkonini beradi.

A.N.Tixonov masofaviy ta'lim veb-saytlarining quyidagi funksiyalarini ajratib ko'rsatadi: adabiyotlarni uzatish; o'rganilayotgan materialni kompyuter telekommunikasiyalari orqali jo'natish; kompyuter tarmoqlari orqali muhokamalar va seminarlar o'tkazish .

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi masofaviy ta'lim sharoitida turli mazmundagi veb-saytlar haqida tasavvurlarga ega bo'lar ekan, metodik tayyorgarligini takomillashtirish imkoniyati bir necha marotaba ortadi. Bularga quyidagilar misol bo'ladi:

Ta'lim muassasalarining veb-saytlari ta'lim muassasasi faoliyati haqida ma'lumot olish imkonini beradi, ular o'qituvchilar va o'quvchilarning o'z yutuqlarini e'lon qilishlari mumkin bo'lgan platformadir. Bunday veb-saytlar o'z ichiga:

umumiy o'rta ta'lim muassasalarining internet-resurslari, shu jumladan masofaviy ota-onalar yig'ilishlari, tanlovlar tashkil etishni;



kasb-hunar ta'limi muassasalari (kollejlar, texnikumlar)ning veb-saytlari;
universitet fakultet va kafedralarining veb-saytlari;
oliy o'quv yurtlarining veb-saytlari;
har bir yo'nalish uchun kasbiy veb-saytlarni oladi.

Masofaviy ta'lim veb-saytlari o'quv jarayonini telekommunikasiya tarmoqlari orqali amalga oshirish imkonini beruvchi veb-loyihalardir.

Ta'lim ma'lumotlarini tarqatuvchi veb-saytlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisiga virtual kutubxonalar (masalan, "Universitetning onlayn kutubxonasi"); o'quv mavzularida jurnal va gazetalar ("PEDAGOGS" nashriyoti); virtual muzeylar ("VIRONICA" muzeyi bu onlayn ekskursiyalarga tashrif buyurish uchun noyob imkoniyatni taqdim etadi – vrmuseum.uz). Ushbu manbalar orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi hatto masofadan turib ham zamonaviy ilmiy va usuliy adabiyotlardan tezda foydalanish imkoniga ega bo'ladi.

Ilmiy tadqiqotlar uchun veb-saytlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisiga ilmiy maqolalarni ommallashtirish, virtual ilmiy laboratoriyalardan foydalanish imkoniyatini beradi. Bunga aloqador "ijodiy ustaxonalar" deb nomlangan maxsus tadqiqot va o'quv veb-saytlari mavjud. Masalan, oak.uz, dissertatsiya.com, tadqiqot.uz, mininnovation.uz platformasi.

Ma'lumot veb-saytlari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning umumiy bilim olishlari va metodik bilimlarini tizimlashtirishga xizmat qiluvchi turli elektron ensiklopediyalarni o'z ichiga oladi ("vikipediya.org", "Kiril va Metyus" portalning mega-ensiklopediyasi, "Gramota. Ru", "Krugosvet" -);

lug'at saytlari (masalan, Vikilug'at, Merriam-webster, Kollinz, Word-net, translete.yandex.uz xizmati);

saytlar katalogi (misol o'qituvchilar uchun dars eslatmalarining xalqaro ochiq katalogi); ma'lumotlar bazalari («wikipedia.org» - umumlashtirilgan ma'lumotlar bankini o'z ichiga oladi).

Konferensiyalarga doir veb-saytlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi faoliyatiga daxldor ilmiy va ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilayotgan konferensiya, tanlov, seminarlar, ajratilayotgan grantlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan saytlar. Mazkur saytlar orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi nafaqat metodik tayyorgarligini takomillashtirish va yangiliklar bilan tanishishi imkoniyatiga ega bo'ladi, qolaversa, o'zidagi qayta shakllangan kognitiv harakatlarni taqdim qilish, muhokamaga qo'yish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Raqobatbardosh internet loyihalariga bag'ishlangan veb-saytlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining mutaxassislik va ixtisoslik fanlari yuzasidan tengdoshlari o'rtasidagi raqobatni ta'minlovchi saytlar (masalan, eng yaxshi o'quv taqdimoti tanlovi o'tkaziladigan sayti – tanlov.uz).



О‘quv-usuliy birlashmalarning veb-saytlari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi va boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarning maktab fanlari bo‘yicha metodik bazasiga bag‘ishlangan saytlar (Bunday saytga misol «bimm.uz»). Bunday manbalarning muhim xususiyati o‘qituvchi tomonidan joylashtirilgan ishlarni sharhlash va baholash (ya‘ni jamoatchilik e‘tirof etish) imkoniyatidir, bu o‘qituvchining o‘z ishining natijalaridan qoniqishini oshirishga yordam beradi.

Ta‘lim veb-xizmatlari real vaqt rejimida ta‘lim mahsulotlarini (masalan, taqdimotlar) yaratish va saqlash imkonini beruvchi saytlardir (idum.uz).

Shunday qilib, veb-saytlar mazmuniy bog‘liqlikni ta‘minlaydi, ayniqsa, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisida veb-saytlar orqali axborot olish kompetensiyasini shakllantirish asosiy vazifalardan biri sanaladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining axborot kompetensiyasi deganda axborot texnologiyalari sohasidagi yuqori darajadagi nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar, bu bilim va ko‘nikmalarni o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonida qo‘llash qobiliyati bilan tavsiflanadigan integral sifat tushuniladi [6].

Xulosa. Biz ishimizda masofaviy ta‘lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini yaxshilash, kasbiy kompetentligini oshirish, aniq va kognitiv vaziyatlarda diversifikasion tashkil etishni o‘zida qamrab olgan quyidagi shart-sharoitlarni tavsiya etamiz:

1. Masofaviy ta‘lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligi zamonaviy shart-sharoitlar tashkiliy omillarni aniq va kognitiv vaziyatlarda diversifikasion tashkil eta olishi bilim olish, bilim berish imkoniyatlarini inobatga olish, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining faoliyatini masofaviy tayyorgarlik asosida maktablar bilan bog‘lash, masofaviy ta‘lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘zlashtiradigan bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi, bularning barini aniq va kognitiv vaziyatlarda diversifikasion tashkil eta olish orqali kasbiy yetuk pedagog darajasiga amaliy erishish barqarorligini ta‘minlash mumkin.

2. Masofaviy ta‘lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligi zamonaviy shart-sharoitlar metodik-texnik omillarni aniq va kognitiv vaziyatlarda diversifikasion tashkil eta olishi ta‘lim jarayonini sifatli tashkil etishda moddiy-texnik, o‘quv-usuliy, elektron ta‘lim resurslari bilan ta‘minlash, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning masofaviy ta‘lim sharoitida mustaqil bilim olish imkoniyatini oshirish, masofaviy ta‘lim platformalarini yaratish, tajribani aniq va kognitiv vaziyatlarda diversifikasion tashkil eta olish orqali kasbiy yetuk pedagog darajasiga amaliy erishish barqarorligini ta‘minlash mumkin.

3. Masofaviy ta‘lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligi zamonaviy shart-sharoitlar pedagogik-psixologik omillarni aniq va kognitiv vaziyatlarda diversifikasion tashkil eta olishi ta‘lim olish va ta‘lim



berishda motivasion munosabatni o'rnatishi, masofaviy ta'lim sharoiti orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining refleksiv faoliyatini tashkil etish, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisida kreativ shaxsga aylanishga nisbatan motivlarni uyg'otish orqali kasbiy yetuk pedagog darajasiga amaliy erishish barqarorligini ta'minlash, metodik tayyorgarligini takomillashtirishga erishish mumkin. Aynan psixologik-pedagogik imkoniyatlar masofaviy ta'lim sharoiti orqali nazariy, ilmiy, amaliy va metodik zaxirani oshirish, shu orqali boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning aqliy rivojlanishlariga asos solinishini hisobga olgani holda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun o'quvchilarning aqliy faoliyati darajasini va imkoniyatlarini bilish hamda shunga qarab harakat qilish ayniqsa muhimdir [5].

Adabiyotlar:

1. Saidova M.J. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirishda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish // Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy axborotnomasi. (ISSN 2181-9580) – 2022 . №4. –325-330-b.
2. Saidova M.J. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining masofaviy ta'limdan foydalanishning pedagogik va didaktik imkoniyatlari // Pedagogik mahorat. – Buxoro, 2021. (ISSN 2181-6833) –Maxsus son. – 40-b.
3. Saidova M.J. Masofaviy ta'lim bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik tayyorgarligini rivojlantiruvchi didaktik-integratsion vosita sifatida // Mug'allim hem uzluksiz bilimlendiriy ilmiy-metodikaliq jurnali. – Nukus, 2022. (ISSN 2181-7138) №3/4.— 149-155-b.
4. Saidova M.J. Masofaviy ta'lim vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbiy kompetentligini shakllantirishning zamonaviy modeli. // Mug'allim hem uzluksiz bilimlendiriy ilmiy-metodikaliq jurnali – Nukus, 2022. (ISSN 2181-7138) №4/1. – 40-b.
5. Saidova M.J. Masofaviy ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining mustaqil faoliyatini tashkil etish // Ilmiy axborotnoma. – O'zMU, 2022. (ISSN 2181-7324) №1.8.1. – 172-174-b.
6. Saidova M.J. Masofali ta'lim vositasida veb-kevtlardan foydalanish mazmuni va samaradorligi // Ilmiy axborotnoma. – Namangan, 2022. (ISSN 2181-0427) №8. – 535-b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada masofaviy ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish zamonaviy shart-sharoitlari va didaktik imkoniyatlari haqida batafsil aytib o'tilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье подробно описаны современные условия и дидактические возможности повышения профессиональной компетентности будущих учащихся начальных классов в условиях дистанционного образования.

SUMMARY

This article describes in detail the modern conditions and didactic opportunities for improving the professional competence of future elementary school students in the conditions of distance education.